SHAYBONIYLAR HUKMDORLARINING MAMLAKATDA OLIB BORGAN OBODONCHILIK ISHLARI TARIXIDAN

Burxonov Lazizjon Salimjon o‘g‘li
Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti Umumiy tarix kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro xonligi Shayboniylar sulolasining hukmdorlari Muhammad Shayboniyxon va Abdullaxon II ning hukmronlik davrining o‘ziga xos tomonlari, boshqa xonlarga qaraganda mamlakat rivoji uchun amalga oshirgan ishlari, bundan tashqari, Temuriy hukmdorlar va Shayboniylar o‘rtasidagi harbiy ijtimoiy va siyosiy munosabatlarning natijalar va davlatchilik asoslari to‘g‘risida va hukmdorlar taqdirlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Muhammad Shayboniyxon, Ismoil Safaviy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Buxoro xonligi, Shayboniylar sulolasi, Abdullaxon II, Fyodor, mustahkam markazlashgan davlat, Xuroson.

Yurtimiz tarixi ko‘p mingyillikka borib taqaladi. Ushbu davrlar tarixi esa bir biridan qiziq va rang-barangdir. Davlatchiligimiz tarixida xonliklar davri ham o‘z o‘rniga egadir. Ushbu xonliklar davri Temuriylar hukronligidan so‘ng yurtimizdagi uzoq yillik tarixga ega davlatlardir. Ushbu davlatlar misolida Buxoro xonligining Shayboniylar sulolasi eng katta mavqega ega. Chunki, Temuriylarning mamlakatdagi yuzaga keltirgan boshboqdoqlikni aynan ushbu sulola yakuniga yetkazgan. Aynan Amir Temurdan so‘ng, ushbu o‘lkada tom ma’noda unga izdosh bo‘lgan ikki hukmdor mavjud bo‘lgan. Ular Muhammad Shayboniyxon va Abdullaxon II dir. Ushbu hukmdorlarning bosqinchilik yurishlar, hayot yo‘li, siyosiy tuzumi yoki boshqaruv tartibiga emas, balki hayotidagi o‘ziga xos e’tiborli jihatlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Muhammad Shayboniyxon Temuriy hukmdorlar o‘zaro kurashlariga barham berdi. Movarounnahr va Xuroson birlashtirildi va Shayboniylar sulolasi hukmronligi qaror topdi. Muhammad Shayboniyxon “Imom uz-zamon”, “xalifat ur-rahmon” unvonini olib, o‘z qo‘lida dunyoviy va diniy hokimiyatni birlashtirdi. [1:187]. Bundan tashqari, Shayboniyxon xattotlik bilan ham shug‘ullangan.[2:206]. Ushbu davrda yashagan Sulton Ali Mashhadiy o‘z umrining aksariyat qismini avval Sulton Abusaid, so‘ngra Sulton Husayn Boyqaro saroylarida o‘tkazdi. Hirot 1507-yilda Shayboniyxon qo‘liga o‘tgach, Shayboniyxon uchun kitob ko‘chira boshladi. [2:168] Q.Yo‘lchiyev, Sa’dulla Siyoyevning “Dashti Qipchoq lochini yoxud Shayboniyxon” asarida Shayboniyxon obrazining o‘ziga xos xususiyatlari nomli maqolasida Shayboniyxon Qur’onni yaxshi bilgan va diniy ulamolar, shoirlar bilan suhbat qurishni xush ko‘rgan. Hukmdorning siyosiy raqibi bo‘lgan Zahiriddin Muhammad Bobur ham uning islom dini borasida yaxshi bilimga ega ekanligi haqida ma’lumotlarni uchratishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda, Shayboniyxon o‘zini Alisher Navoiyning ma’naviy shogirdi hisoblar, o‘nlab g‘azallarini yod bilar va o‘z qo‘li bilan ilk devonini ko‘chirgan edi. Shayboniyxon turkiy tilni nihoyatda qadrlagan. U Hirotda bundan boshlab devon ishlari turkiy tilda yurgizilsin deb buyruq beradi. Afsuski Shayboniyxon vafot etishi bilan devon ishlari turkiy tildan forsiy tilga o‘tkaziladi.[3:92]. Muhammad Shayboniyxon 1510-yilda Eronga yurish qilib, Mashhad va Eronning shimolidagi boshqa shaharlarni egallagan edi. Eron shohi asosiy kuchlari bilan Shayboniyxonga qarshi chiqqach, u Mashhaddan Seraxs orqali Marvga ketgan edi. Bundan xabar topgan shoh Ismoilning 70 ming kishilik qo‘shini Marv qo‘rg‘onini qurshovga oldi.[4:678]. 1510-yil kuzida Shayboniyxon uning izidan katta kuch bilan yetib kelgan Eron shohi Ismoil Safaviy qo‘shinlari bilan jangga kirishdi. Marv yaqinida bo‘lib o‘tgan bu jangda Shayboniyxonning kam sonli qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchradi hamda zamondoshlari tomonidan “Xalifa ur-rahmon” va “Imom az-zamon” deb ulug‘langan Muhammad Shohbaxt Shayboniyxon jangda halok bo‘ladi.[2:178] Eronliklar Shayboniyxonni qo‘lga olib 1510-yil 12-dekabrda uning boshini tanasidan judo etib, nayza uchiga ilib qo‘yadilar. Zaki Validiy To‘g‘onning yozishicha, shoh Ismoilning buyrug‘i bilan Shayboniyxonning bosh suyagidan sharob qadahi yasaladi va u oltin bilan bezatilib, Misr sultoni Falajga sovg‘a sifatida yuboriladi. Chunki Falaj ham Shayboniyxon singari sunniy mazhabida edi va uni juda sevardi. Shayboniyxonning bosh suyagidan yasalgan tilla

qadahning Misrga yetib kelishi sunniy mazhabidagi aholi o‘rtasida katta norozilik uyg‘otdi. Misr sultoni Qansu Gavri o‘sha bosh suyakni katta hurmat bilan ko‘mdiradi.[5:17]. Uning boshsiz tanasi Samarqanddagi Baland Sufaga dafn qilingan. Baland Sufa Registon maydonida Tillakori va Sherdor madrasalari o'rtasidagi burchakda joylashgan bo‘lib bu yerga keyinchalik boshqa Shayboniylar ham dafn etilgan. [4:679]

Shayboniyxondan so‘ng ushbu sulolaga mansub bo‘lgan bir qancha hukmrdorlar o‘tdi. Lekin, Abdullaxon II Amir Temurdan so‘ng Movarounnahrda nisbatan qat’iy siyosat yurgiza olgan yagona va so‘ngi davlat arbobi edi. U Buxoro hokimiyatini tiklash maqsadida Qozog‘istonning hozirgi Qarag‘anda viloyati g‘arbidagi, Sariqsuv daryosining Shimolida joylashgan Ulug‘toqqa yetib borgach, tog‘ tepasidagi bir minorada bitilgan so‘zlarga ko‘zi tushadi. Ushbu bitiklar 1391-yili Amir Temur To‘xtamishxonga qarshi lashkar tortgan kezi shu tog‘ ustiga chiqib, so‘ng bu yerda bir minora qurdirib xarsang toshga o‘ydirib yozdirgan xotira so‘zlari edi. Abdullaxon II buyuk sohibqiron haqiga duolar o‘qittirib, o‘zi ham qarshi tomonda bir minora qurishga buyruq berdi va unga “Kimki bu manzilga qadam qo‘ysa, xayrli duo ila bizni yod aylasin” so‘zlarini o‘ydirtiradi.[6:240-241]. Amir Temur Turkiston shahrida Xo‘ja Ahmad Yassaviy maqbarasi va masjidini qurdirgani ma’lum. Tugallanmay qolgan bu ishni oxiriga yetkazish Abdullaxon II ga nasib etadi.[5:25] Abdullaxon II ning o‘zi ham iste’dodli shoir bo‘lib “Xon” taxallusi bilan o‘zbek va fors tillarida she’r yozgan.[5:28] Abdullaxon II harbiy sohada ham bir qancha ishlarni amalga oshirgan. Xususan, Turkiyadan keltirilgan pilta miltiq va zambaraklar bilan qurollana boshlagan.[7:32-34] Abdullaxon II topshirig‘i bilan o‘z vaqtida 7 ta zambarak tayyorlangan edi. [2:204] Abdullaxon II uzoq yillik olib borilgan urushlardan so‘ng butun Movarounnahr, Xuroson, Xorazm va Turkistonni qo‘lga kiritib Shayboniyxon tuzgan davlatni qayta tiklashga muvaffaq bo‘ldi.[2:183] Abdullaxon II tomonidan Xurosonning egallanishi, hatto Rossiya podshosi Fyodorning ham qulog‘iga yetib boradi. U esa qozoq sultonlari bilan Eron shohi birgalikda Shayboniylarga qarshi kurashishlari lozim, degan xulosaga keladi.[2:185]

Abdullaxon II vafoti haqida ko‘plab tarixiy dalillar mavjud. Ya’ni, Abdullaxon II o‘g‘li Abdulmo‘min tomonidan 1598-yili zaharlab o‘ldirilgan. Bu ishda harbiy zodagonlar boshliqlaridan biri Muhammad Boqibiy tashkilotchilik qilgan. [5:26] Boshqa manbaada esa, Abdullaxonga qarshi uning o'g‘li Abdulmo'minni qayraydi, Abdullaxon II bilan uning o'g‘li Abdulmo'min o'rtasida taxt masalasida kelishmovchilikdan foydalangan qozoq xonlaridan Tavakkalxon Toshkent viloyati yerlariga bostirib kiradi. Unga qarshi safarga otlangan Abdullaxon II Samarqandga yetganda vafot etadi. Abdullaxon II o'rniga taxtga ko'tarilgan Abdulmo'min 6 oycha hukmdor bo'ldi, u otasining amirlaridan biri- Abdulvose’ tomonidan otib o‘ldirildi.[1:189]

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tishimiz mumkinki, ikkala hukmdorlar ham o‘z davri uchun yuksak mahorat va aql zakovat sohiblari bo‘lishganligi shubhasiz. Negaki, o‘ta murakkab vaziyatda ham mamlakat mustaqilligini saqlab qolaolgan hukmdorlardandir. Ushbu shaxslar tariximizda mangudir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova, O‘zbekiston tarixi. T.: Iqtisod-Moliya. 2006
2. B.Eshov, A.Odilov, O‘zbekiston tarixi II qism, T.: 2020.
3. S.Siyoyev, Dashti Qipchoq lochini yoxud Muhammad Shayboniyxon qissasi, T.: Navro‘z, 2021.
4. Shayboniylar daxmasi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi... 9-jild.
5. R.Shamsuddinov, Sh.Karimov, O‘.Ubaydullayev, Vatan tarixi, II qism. T.:Sharq, 2010.
6. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. T, Sharq, 2000.
7. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1 -jild.